



**BADIY ASAR TILIDAGI MODAL SO‘ZLARNING MA’NO
XUSUSIYATLARI VA USLUBIY XOSLANISHI**
(Said Ahmadning «Ufq» asari misolida)

Xanmuratova Sayyora Xalmuxammet qizi
*O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi
Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI*

Annotatsiya: Maqolada Said Ahmadning «Ufq» asaridagi modal so‘zlarning ma’no xususiyatlari va uslubiy xoslanishi masalalari o‘rganilgan. Said Ahmadning til birliklaridan o‘ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida yozuvchining individual uslubi ham tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy asar tili, modal so‘zlar, ma’no xususiyatlari, uslubiy xoslanish, badiiy adabiyot.

Аннотация: В статье рассматриваются семантические и стилистические характеристики модальных слов в произведении Саида Ахмеда «Уфк». Также анализируются уникальное использование Саидом Ахмедом языковых единиц, выбор морфологических форм и синтаксических приемов и другие аспекты индивидуального стиля писателя.

Ключевые слова: язык художественного произведения, модальные слова, семантические особенности, стилистические особенности, художественная литература.

Annotation: The article examines the semantic characteristics and stylistic characteristics of modal words in Said Ahmed's work "Ufq". Said Ahmed's unique use of language units, choice of morphological forms and syntactic devices, and other aspects of the writer's individual style are also analyzed.

Key words: the language of a work of art, modal words, semantic features, stylistic features, fiction.

KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Badiiy asar tilini o‘rganish tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari uchun ham muhim bo‘lib, unda adib asarlari tilining uslubiy xususiyatlari keng yoritiladi.

Badiiy asar tilini ongli ravishda tahlil qilish ma’lum bir asar mazmunini, uning g‘oyaviy mohiyatini, yozuvchining ijodiy mahorati va g‘oyaviy yo‘nalishini chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi, yoshlarni o‘z bilimini amalda mustaqil sinab ko‘rish malakalarini hosil qilib, ma’naviy dunyoqarashini shakllantiradi, turmush haqida, kishilar va insoniy munosabatlar to‘g‘risida shaxsiy mushohada yuritishga imkon yaratadi.

Badiiy asarlar tilini tahlil qilish yoshlarga mustahkam bilim berish yo‘lidagi muhim nazariy va amaliy usullardan sanaladi.

Asosiy maqsad yosh avlodni bilimli qilib tarbiyalash ekan, birinchi navbatda muayyan asarni lisoniy jihatdan tahlil qilish talab etiladi, badiiy asar tahlili orqali asarning g‘oyaviy mag‘zini, nafosatliliginini, badiiy tasvir vositalarini, janr xususiyatlarini bilib olish mumkin.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI.



Badiiy asar tilini o‘rganish tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari uchun ham muhim bo‘lib, unda adib asarlari tilining uslubiy xususiyatlari keng yoritiladi. Bu haqida akademik V.V.Vinogradov «Badiiy adabiyot tilini o‘rganish filologiya fanining asosiy xususiyatlarini belgilab borar ekan, undan tilshunoslik va adabiyotshunoslik har tomonlama nazariy masalalarga ega bo‘ladi» [1: 186] – deb ta’kidlagan edi.

Ma’lumki, badiiy adabiyot tilini tekshirish dastlab o‘tgan asrning 20-yillaridan boshlandi. Dastlab Evropa tilshunosligida «Praga lingvistik to‘garagi» a’zolari tomonidan badiiy adabiyot tilining muhim qonuniyatları, o‘ziga xos xususiyatlari ochildi.

Shundan keyin yirik tilshunos olimlarning jumladan, akademik V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, A.I.Efimov, M.I.Kojana kabilarning ilmiy tadqiqotlari maydonga keldi. Bu ta’limotlar o‘rganilib turkiy tillarda. Jumladan, o‘zbek tilshunosligida Sh.Shoabdurahmonov, G’.Abdurahmonov, R.Qo‘ng‘urov, X.Doniyorov, Y.Tojiyev, B.Yo‘ldashev, S.Karimov, B.Umurqulovlarning nomzodlik va doktorlik ilmiy tadqiqotlari paydo bo‘ldi.

Ayniqsa, bu sohada Q.Samadovning Oybek asarlari tiliga, B.Yo‘ldoshevning Said Ahmad asarlari tiliga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar qimmatlidir [9;10]. K.Samadov badiiy matnlarda so‘zlar ishlatilishining qay yo‘sinda bo‘lishi yozuvchi badiiy barkamolligiga bog‘liq dedi va bu holatni har bir tadqiqotchi tekshirish jarayonida anglab olmog‘i shart deb ta’kidlaydi [2]. Haqiqatan ham har bir yozuvchining o‘ziga xos uslubi bo‘lib, bu maxsus tadqiqot ishlari olib borilganda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shunday ekan, badiiy asarlar tilidagi modal so‘zlarning ma’no xususiyatlari va uslubiy xoslanish xususiyatlarini o‘rganish bugungi o‘zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT NATIJALARI.

Modal so‘zlar modal ma’no ifodalashi jihatidan yuklamalarga o‘xshasa-da, lekin undan farqli ravishda gapda gap bo‘lagi vazifasida, butun bir gap tarzida kela oladi.

So‘zlovchining bayon etilayotgan fikrga munosabati — qat’iy ishonch, guman, taxmin kabi ma’nolarni ifodalab keladigan so‘zlar modal so‘zlar ekanligini yuqorida ta’kidlab o‘tdik.

So‘zlovchining bildirgan fikriga qo‘srimcha munosabatini ifodalovchi so‘zlar modal so‘zlar guruhi tashkil qiladi.

O‘zbek tilshunosligida modal so‘zlar morfologik jihatdan o‘zgarmaydi: turlanmaydi, tuslanmaydi. So‘z yasalishi, shakl yasalishi uchun asos bo‘lmaydi. Ma’noli qismga ajralmaydi. Gapda boshqa bo‘laklar bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi.

Yuqorida modal so‘zlarning turlariga to‘xtalib o‘tganimizda, ularning sof modal so‘z va modal ma’noli mustaqil (vazifadosh) so‘zlarga ajratilishi haqida so‘z



yuritgandik. Quyida Said Ahmadning «Ufq» asarida qo‘llangan sof modal so‘zlarga misollar keltiramiz:

Sof modal so‘z: **albatta, chamasi, aftidan, tabiiy, mazmuni, ehtimol.** Bularga misollar: *Albatta, undan uzr so‘rash kerak, degan o‘y bilan orqasiga qaytganda, Dildor suvdan chiqib kiyinib olgan, xarsangga cho‘nqayib oyog‘ini yuvayotgan edi, Nizomjon uning yuziga qaramay ming‘illadi...* [6: 262].

Chamasi yarim soatlar askiyadan keyin Yusupov kula-kula mashina to‘xtagan tarafga qarab yura boshladi.

Ehtimol, Ikromjonning qarindoshi deb o‘ylashgan bo‘lsa kerak.

Modal ma’noli mustaqil (vazifadosh) so‘z: **bor, yo‘q, kerak, darkor, zarur, lozim, mumkin, iborat.** Masalan, *Qorong‘i tushishini, yolg‘iz o‘zi qolishini kutish kerak* [6: 135].

Yo‘q, gazeta o‘qish ham ko‘ngliga sig‘may qolgandir.

- *Yana qanday gaplaring bor? Menden qanday yordam kerak?... To‘g‘ri, cho‘lda tayyor uy yo‘q.*

Shag‘al joylarga loyqa o‘tirib shibalashi mumkin.

Modal so‘zlar, aslida boshqa turkumdan o‘sib chiqib, alohida bir guruhni hosil qilgan:

1) otdan: *ehtimol, chog‘i, chamasi, mayli, mazmuni, haqiqatdan, haqiqatda, darhaqiqat, darvoqe, filhaqiqat, aslida, aftidan, xayriyat, vassalom;*

Masalan, *Darhaqiqat, Esh polvon tushlikdan keyin sher bo‘lib ketdi* [6: 210].

Aslida idoraga kirib Tog‘adan mashina so‘rasa bo‘larkan.

Aks holda, Akbarali ularni tinch qo‘ymaydi.

Afsuski, u, hatto kelgindi itning ham dumi chotiga qisiqlik bo‘ladi, deganlaridek, mo‘mingina bo‘lib, o‘z taqdirini kutardi [6: 54].

Talabgor bo‘lib chiqqan kishi engolmagan bo‘ladi. Demak, men yutgan bo‘laman.

Odamlar, xayriyat, yog‘ib berganda kanalchilarни tashvishga solib qo‘yardi, deb xotirjam bo‘lishdi.

Mayli, har kim o‘z qo‘lidan kelgan ishni qiladi, Azizzon o‘zini yupatish uchun bahona topdi [6:124].

...Ehtimol, uning sevishini bilmas? [6: 266].

2) sifatdan o‘sib chiqqan: *shubhasiz, shekilli, rost//rosti, to‘g‘ri//to‘g‘risi// to‘g‘rirog‘i, so‘zsiz, tabiiy//tabiiyki, ma‘lumki, muhaqqaq, ochig‘i;*

Lebedev javobga tayyor emas ekan shekilli, andak dovdirab qoldi [6: 169].

Rost, bordi-yu dadasingin, opasining niyatlaridan Dildorning xabari bo‘lmash, unda nima bo‘ladi? [6: 383].

To‘g‘ri, Risolat tug‘ruqxona oldiga borib qatiq, bodring sotardi [6: 422].



3) ravishdan: *albatta, rostdan, chindan, avvalo, zotan, umuman*: **Albatta** ayasi bilan dadasini boshiga ko 'tarmoqchi, **el-yurt oldida hurmatini joyiga qo 'ymoqchi** [6: 121].

Umuman, Dildor Nizomjonga ko 'rinmaslikka harakat qilardi.

4) bog'lovchidan: *balki*; **Balki** ko 'rash tushsa uni yiqitar, ammo Do 'nan polvon unchalik og 'ir yuk ko 'tarolmas [6: 124].

5) olmoshdan: *o 'z-o 'zidan, har qalay*. **Masalan**, **Har qalay**, tepamdan birov o 'q yog 'dirib turgani yo 'q-ku...[6: 381].

6) fe'lidan: *kel//keling, qo 'y//qo 'ying//qo 'yingki, hoynahoy, demak, deylik, olaylik; Demak, ular savag 'ichini shu taraflardan olib ketishar ekan-da* [6: 362].

7) sintaktik birlikdan: *har holda, haytovur, ishqilib, bari bir, nafsilambiriga*.

-Ishqilib, men bu yoqlarda yurganimda bolam qaytib kelsa uydan topolmay sarson bo 'lib qolmasin-da.

Modal so'zlar gap mazmuniga *aniqlik, shubha, gumon, maqsad, talab, shart, mavjudlik, tasdiq, inkor, xulosa, eslatish, achinish, afsus* kabi ma'nolarni qo'shadi. Shunga ko'ra ular quyidagi ma'no guruhlariga bo'linadi:

1. Fikr aniqligini ifodalovchi modal so'zlar. Bunda:

- fikrning rostligi (*darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda*): **Darhaqiqat**, Tursunboy nihoyatda ko 'rkam yigit bo 'lgan edi [6: 293].
- fikrga ishonch bildirish (*albatta, albat*): **Albatta**, *Lutfinisani undan yilib olib ketadi*.

Agar Azizzon bo 'lmaganda, albatta, bu otni Esh polvonga mindirishardi [6: 171].

- fikr aniqligini eslatish (aslida, darvoqe): **Aslida idoraga kirib Tog 'adan mashina so 'rasa bo 'larkan** kabi ma'nolar ifodalanadi.

2. Fikr noaniqligini ifodalovchi modal so'zlar. Bunda:

- fikrning taxminiyligi (*shekilli, chog'i, chamasi*): *U nishon taqayotganda nimadir qildi shekilli, Boqiboeva sapchib orqaga chekindi, uning qo 'lini turtib tashladi* [6: 159].

- gumon (*ehtimol, balki, har holda, har qalay*): ...**Ehtimol**, qayta yuz ko 'rishmasmiz...

Balki, Nizomjon baxtini o 'sha yerda topar [6: 318].

Har qalay, dunyoga odam qoldirdi [6: 623].

3. Fikr tartibi va so'zlovchi munosabatini bildiruvchi modal so'zlar: birinchidan, ikkinchidan, avvalo, xullas, binobarin, masalan, jumladan, zero, zotan kabi.

Masalan, **Xullasi**, u qimirlasa pul tushib turibdi [6: 428].

Xullas, Inoyat oqsoqol tili bilan birovga ozor bermasa ham qilig'i bilan, yurishi turishi bilan hammaning me 'dasiga tegardi.



4. Hissiy holat ma'nosini ifodalovchi modal so'zlar: attang, ajabo, hayriyat, afsus, essiz kabi.

Masalan, Azizzon, *xayriyat-e*, devorishimga oz qoldi [6: 53].

...*Xayriyat* kepsan. Eshitgandirsan, shunaqa ishlar bo'lib ketdi [6: 191].

5. Tasdiq, mavjudlik va mavjud emaslik ma'nolarini ifodalovchi modal so'zlar: mayli, xo'p, bor, yo'q kabi.

Masalan, - *Xo'p, mayli, boraman*.

...*Mayli, yotaylik endi*... [6: 294].

... *Mayli, tunuka bo'lmasa ham, hozircha qog'oz yopib turamiz*.

- *Mayli, Tog'a, sen bir narsani bilib aytayotgandirsan* [6: 324].

Yo'q? Unday odam oson jon taslim qiladi [6: 623].

...*Bo'pti, qaynoq-qaynoq choy ich-da, borib yot...*

Modalga o'tish bosqichida turgan ayrim so'zni modal yoki modal emas deyish qiyin. Shuningdek:

- *xullas: U tomoni Anjon, bu tomoni Namangan, Qo'qon taraf, xullas, cho'lni doira shaklida o'rav, o'zlashtirib kelinaverarkan*.

- *demak: ...Demak, dadasi ularni sotmagan*.

...*Demak, Tursunboy Marg'ilon atroflarida yashirinb yuribdi* [6: 377].

- *umuman: ...Umuman, Dildor keyingi kunlarda sal boshqacharoq bo'lib qolgan edi*.

...*Umuman, Dildor uning ma'yus boqishlariga, uchrashib qolganda gap topolmay esankirashlariga beparvoroq qarardi* [6: 260].

- *ayniqsa: ... Ayniqsa, uning «Dovdirash», «Yodgor» qissalarini maza qilib qayta-qayta o'qigan edi* [6: 103].

Ayniqsa, polvon kishining g'ururi boshqacha.

Ayniqsa, tungi smenadagi ishlarni, xalq saysayllarini projektorsizlentaga tushirolmay qiyalyapmiz [6: 130].

Ayniqsa, Kuyganyordan chiqaverishdagi katta ravot tepasida o'g'lining suratini ko'rib entikdi [6: 118].

- *xayriyat: Quchoq ochib ko'risharkan: «Xayriyat, xayriyat, tirik ko'rdim!» - dedi*.

- *nihoyat: Nihoyat, ko'priq oldiga kelib egardan tushdi* [6: 259] kabi so'zlarni ko'proq so'zlovchining qo'shimcha munosabatini ifodalashga xoslanayotganligi, kirish bo'lak vazifasini bajarayotganligi uchun modal so'z deyish mumkin. Masalan, *Nihoyat, oqsoqol bir so'z demay ichkariga kirib ketdi* [6: 277]. ...*Xullasi, ikkita zirillamalik Eshni iskanjaga olib turipti*.

Mavjudlikni bildiruvchi modal so'zlar gapda vergul bilan ajratilmaydi, kirish so'z vazifasida ham keladi. Ular ma'lum gap bo'lagi vazifasida kela oladi yoki kesim



tarkibida qo'llanadi: *bor*, *yo'q*, *kerak*, *lozim*, *shart*. Masalan, *Qatiqni ham puflab ichishing kerak* [6: 651]. *Endi Ikromjonning o'g'li ham, kelini ham yo'q* [6: 388]. *Demak, yaqin orada katta yo'l bor.*

Asarda bir gapda birdan ortiq modal so'z ham ishtirok etishini quyidagi misollar orqali ko'rishimiz mumkin: *U albatta, hozirgi qilgan ishim uchun dashnom eshitsam kerak, deb cho 'chigan edi. Albatta, u Dildorga ham ko'p ko'rgiliklarni solgan bo'lishi kerak* [6: 281].

XULOSALAR.

Xulosa qilib aytganda, ijodkorning til birliklaridan o'ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida yozuvchining individual uslubini ham yuzaga chiqaradi. O'zbek adabiy tilining rivojlanishi, umummilliy adabiy til darajasiga ko'tarilishida badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, badiiy adabiyotga o'z hissasini qo'shayotgan ijodkorlar asarlarining tili va uslubini o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR:

1. Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. – М., 1991. –186 bet.
2. Нормуродов Р. Шукур Холмирзаевнинг асарларининг тил хусусиятлари. НДА. Т., 2000.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – T.: Universitet, 2006.
4. Saidov S. Modal so'zlarning tarixidan // O'zbek tili va adabiyoti. – 1974. № 4.
5. Pinxasov Y. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. – 1962. № 1.
6. Said Ahmad. Ufq. Trilogiya. – Toshkent: Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976
7. Saidov S. Hozirgi zamon o'zbek tilida modal so'zlarning klassifikatsiyasiga doir//O'zbek tili va adabiyoti. – 1963. №3.
8. Saidov S. Modal so'zlarning gapda qo'llanilishi haqida// O'zbek tili va adabiyoti. 1964. №4.
9. Самадов К. Некоторые вопросы языкового мастерства Айбека. АКД. Т., 1967.
10. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o'zbek tili. – T.: Talqin, 2006.
11. Юлдашев Б. Язык и стиль произведений С.Ахмада. АКД. Т., 1979.